

Aksiyadorlik jamiyatida elektr energiyasini uzatish, tizimlarni ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish borasida 2026-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar hamda 2026-yil rejasiga muvoviq davom ettirilayotgan vazifalar yuzasidan ma'lumot.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yana-da rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” 2019-yil 27-martdagi PQ–4249-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan bo‘lib, asosiy faoliyati elektr energiyasi transportirovkasi va davlatlararo tranzitini amalga oshirishdan iborat.

Aksiyadorlik jamiyati tarkibiy tuzilmasida **17 ta filial** mavjud, ularda jami **8 973 nafar** xodimlar faoliyat yuritmoqda. 14 ta Magistral elektr tarmoqlari, “Energomaxsusavto”, “Energo-IT” hamda “Magistraltarmoqqurilish” filiallari.

I. Elektr energiyasini uzatish, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, iqtisod qilish bo‘yicha:

1-CHORAKDA:

- 21,9 mlrd. kVt·soat (108%) elektr energiyasi transportirovka qilindi;
- texnologik yo‘qotish miqdori 1,1 mlrd. kVt·soat, 3,97 %ni tashkil etdi (*me‘yor 1,2 mlrd. kVt·soat, 4,99 %*);
- 19,9 mln kVt·soat (101%) elektr energiyasi iqtisod qilindi;
- energoaudit (*“TTT-AUDIT” MCHJ, 2025-yil sentyabr*) xulosasiga ko‘ra-yiliga 3,6 mln kVt·soat elektr energiyasini tejash chora-tadbirlari belgilandi;
- 1,9 mln dollarlik tranzit xizmati ko‘rsatildi;
- bir birlik (*1000 kVt·soat uzatish*) xizmat ko‘rsatish uchun elektr energiya sarfi 48,7 kVt·soat (*reja 53,3 kVt·soat*);
- o‘z iste‘moli 12,8 mln kVt·soat (*reja 17,9 mln kVt·soat*), xo‘jalik iste‘moli 1,1 mln kVt·soatni (*reja 1,9 mln kVt·soat*) tashkil etdi;
- jami 834kVt quyosh panellari o‘rnatildi.

2026-yil YAKUNIGA QADAR (REJA):

- 82,1 mlrd kVt·soat elektr energiyasi transportirovka qilinadi, texnologik yo‘qotish 4,3 mlrd kVt·soat, 4,96 % (*me‘yor 4,4 mlrd kVt·soat, 5,06 %*) miqdorida bo‘lishiga erishiladi, 115,3 mln kVt·soat (103%) elektr energiyasi iqtisod qilinadi;
- 8,8 mln dollarlik tranzit xizmati ko‘rsatiladi;
- bir birlik (*1000 kVt·soat uzatish*) xizmat ko‘rsatish uchun elektr energiyasi sarf rejasida 50,9 kVt·soat;
- o‘z iste‘moli 69,5 kVt·soat (*reja 78,1 kVt·soat*), xo‘jalik iste‘moli miqdori 4,5 kVt·soatni (*reja 6,3 kVt·soat*) tashkil etadi;
- 490 kVt qo‘shimcha quyosh panellari o‘rnatiladi.

I. Asosiy faoliyat (ekspluatatsiya, ta‘mirlash, zaxira) bo‘yicha:

Aksiyadorlik jamiyati tasarrufida ayni paytda **1 675 ta podstantsiya, 38 623 km** uzunlikka ega elektr uzatish **tarmoqlari** mavjud bo‘lib, **umumiy quvvat 61 012 MVA** ni tashkil etadi.

1-CHORAKDA:

- **15 146 km** (107 %) tarmoqlar rejali ko‘rikdan o‘tkazildi, **9 134 km** (100 %) tarmoqlar va **444 ta** (101 %) podstansiyalardagi elektr qurilmalarining kontakt birikmalari **teplovizor** ko‘rigidan o‘tkazildi, **9,1 km** tarmoqlar **dron** ko‘rigidan o‘tkazildi **71 ta** (101 %) sovitish tizimlari ta‘mirlandi, **9 134 ta** izolyator almashtirildi;
- **781 ta** (108 %) transformator, **861 ta** (113%) o‘chirgich va **5 425 km** (105%) tarmoqlar **joriy** ta‘mirlandi;
- **11 ta** (183 %) transformator, **62 ta** (115%) o‘chirgich va **243 km** (279%) havo elektr uzatish tarmoqlari **mukammal** ta‘mirlandi;
- avariyalarni tezkor bartaraf etish uchun **222 ta** navbatchi guruhlar brigadalari maxsus avtotransport, zaruriy ehtiyot qismlar, aloqa hamda himoya vositalari bilan to‘liq ta‘minlangan.
- **799** dona transport vositalari va mexanizmlari mavjud. 210dona maxsus transport, 18 dona avtobus, 124dona yuk avtotransport, 120 dona yengil avtotransport, 69dona mexanizmlar, 258dona operativ (tezkor) vositalar.

Joriy-yil “yoz mavsumi” va 2026-2027-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida

BAJARILDI: 2026-yil 1-chorakda,

- **23 552 km** magistral elektr uzatish tarmoqlardan **5 667 km** (24 %), **2 817 ta** kuch transformatorlardan **792 ta** (28 %), **4 217 ta** o‘chirgichlardan **921 ta** (22 %) ta‘mirlandi.
- Magistral elektr tarmoqlari uchun **36 ta** temir-beton tayanchlar, **24 ta** metal tayanchlar, **10 000 dona** izolyatorlar, **45 ta** transformatorlar, **120 tonna** transformator moyi, **700 kg** texnik plastinalar, **15 tonna** simlar, **9,8 km** kabellardan iborat avariyaaviy **zaxira** yaratildi.
- “Yagona elektr energetikasi tizimida texnologik buzilishlarni tekshirish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”ga asosan **63 ta**II darajali **o‘chishlar** hisobga olingan (*o‘tgan-yil mos davriga nisbatan 52 taga oshgan*).

BAJARILMOQDA: 2026-yil davomida,

- **36 633 km** tarmoqlar rejali ko‘rikdan o‘tkaziladi, **36 993 km** tarmoqlar va **1 676 ta** podstansiyalardagi elektr qurilmalar kontakt birikmalari **teplovizor** ko‘rigidan o‘tkaziladi, **37 km** tarmoqlar **dron** ko‘rigidan o‘tkaziladi, **33 934 ta** izolyator almashtiriladi, **582 ta** sovitish tizimlari ta‘mirlanadi;
- **2 750 ta** transformator, **3 939 ta** o‘chirgich va **21 414 km** havo elektr uzatish tarmoqlari **joriy** ta‘mirlanadi;
- **67 ta** transformator, **278 ta** o‘chirgich va **2 139 km** havo elektr uzatish tarmoqlari **mukammal** ta‘mirlanadi;
- Yoqilg‘i-moylash mahsulotlari isrof bo‘lishini oldini olish maqsadida **4 dona** zamonaviy yoqilg‘i tarqatish kolonkalari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

III. Investitsiya dasturlarining ijrosi bo‘yicha:

1-chorakda, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan **117,2 mln dollar o‘zlashtirildi, ya’ni shu mablag‘lar miqdoriga teng miqdorda ishlar bajarildi** (*reja 83,8 mln dollar, 140 %*), shundan:

- xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan **105,5 mln dollar** (*reja 72,9 mln dollar 145 %,-yillik rejaga nisbatan 20 %*);
- davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘lari hisobidan **19,5 mln dollar** (*reja 11,1 mln dollar, 176 %*), boshqa xorijiy investitsiyalar **86,0 mln dollar** (*reja 61,8 mln dollar, 139 %*).

- soha mablag‘lari hisobidan **2,2 mln dollar** (reja 0,9 mln dollar, 246 %);
- tijorat bank kreditlari hisobidan **4,0 mln dollar** (reja 4,0 mln dollar, 100 %);
- tiklanish va tarraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **5,4mln dollar**(reja 6,0 mln dollar, 91 %).

Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma dasturi doirasida Respublika budget mablag‘lari hisobidan **17,0 mln dollar** (reja 13,7 mln dollar, 124%) va-yildan-yilga o‘tuvchi soha mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha **7,1 mln dollar** (reja 3,8 mln dollar, 186%) o‘zlashtirildi.

Yil yakuni bilan, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida **664,4 mln dollar o‘zlashtiriladi** (2025-yil amalda o‘zlashtirish 476,3 mln dollarga nisbatan 139 % ni tashkil etadi).

Shundan:

- xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan **516,6 mln dollar**;
- davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘lari 232,5 mln dollar, boshqa xorijiy investitsiya mablag‘lari 284,1 mln dollar;
- soha mablag‘lari hisobidan **27,8 mln dollar**;
- tijorat banki kreditlari hisobidan **60,0 mln dollar**;
- tiklanish va tarraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **60,0 mln dollarni** tashkil etadi.
- **22,0 mln dollar** bo‘lgan **2 ta** (*“Mergancha” podstansiyasi – yangi qurilish, “Beruniy” podstansiyasi – rekonstruksiya*) loyiha ishga tushiriladi, natijada **250 MVA** quvvatli **1 ta** podstansiya (*“Mergancha” podstansiyasi*) hamda **2 km** 220 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘i foydalanishga topshiriladi;
- yangi qurilish va modernizatsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlar natijasida jami **1 102 MVA** (9 ta podstansiyada) qo‘shimcha quvvat **yaratiladi**;
- ishga tushiriladigan investitsiya loyihalari hamda dasturlar doirasida tizim korxonalarida **38 ta** yangi ish o‘rnini yaratiladi.

3.1. Vazirlar Mahkamasining 598-sonli qarori ijrosi bo‘yicha (Toshkent shahridagi elektr tarmoqlarini rivojlantirish):

Loyihaning umumiy qiymati **1 424 mlrd so‘mni** tashkil etadi.

Tiklanish va tarraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2025–2026-yillarda amalga oshirilishi belgilangan. “Tayyor holda topshirish” sharti bilan Bosh pudratchi “O‘zenergota‘mir” AJ, subloyihachi “O‘zenergoinjining” AJ, tuzilgan shartnomaga asosan uzoq muddat tayyorlanadigan uskunalarni xarid qilish uchun 503,4 mlrd so‘m, qurilish-montaj ishlari uchun 215,7 mlrd.so‘m jami 719,1 mlrd. so‘mlik to‘lov amalga oshirilgan.

1-chorakda qurilish-montaj ishlari doirasida **69,0 mlrd. so‘m** mablag‘ o‘zlashtirildi.Qarorga muvofiq jami **40 ta** obyektida (**23 ta podstansiya, 17 ta elektr uzatish tarmog‘i**) modernizatsiya ishlari amalga oshiriladi, barcha obyektlar bo‘yicha zarur bo‘lgan loyihaoldi va loyiha hujjatlari bosh pudratchiga taqdim qilingan.

23 ta podstansiyadan, 5 tasi yangi quriladi, 18 tasida modernizatsiya ishlari amalga oshiriladi. 5 ta yangi quriladigan podstansiyalarning 3 tasida ishlar boshlangan (*Iykota, Yangi Avlod, Do‘stlik*), 1 tasida loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, uskunalarga buyurtma berildi, temir-beton mahsulotlari olib kelinib, o‘rnatilmoqda (*Qumariq*), 1 tasida yer ajratilib, loyiha ishlari bajarilmoqda (*Qo‘shko‘prik*).

18 ta modernizatsiya ishlari amalga oshirilishi belgilangan podstansiyalardan, 17 tasida ishlar boshlangan: *MJK, Risovaya, Beshqo‘rg‘on, “ODO”, “Yurtim”, “Sevinch”, “O‘zgarish”, “Prigorod”,*

Ikarus Istiqbol”, “Panel”, “Podyomnik”, “Bunyodkor”, “Algoritm”, “Shayxontohur”, “DOZ”, “Karvon”.

- **1** tasida loyiha hujjatlari ishlab chiqilmoqda (“Salar”);
- **17 ta tarmoqlardan, 8** tasi yangi quriladi va 9 tasi modernizatsiya qilinadi;
- 8 ta tarmoqlardan, 1 tasida ishlar yakunlangan (*L-Istiqolol 1,2 110 kV*);
- 4 tasida qurilish ishlari olib borilmoqda (*Qo‘yliq-Xosilot, Toshkent Siti-O‘zbekiston, Iykota va Yangi avlod elektr tarmoqlari*);
- 3 tasida loyiha hujjatlari ishlab chiqilmoqda (*Do‘stlik, Qumariq, Qo‘shko‘prik*);
- 9 ta tarmoqdan, 3 tasida ishlar yakunlangan (*Sputnik-Karyer, Yurtim-TS-5, Botanika-O‘zbeksekmash*);
- 6 tasida qurilish ishlari olib borilmoqda (*Qatortol-Yuvelir, Yunusobod-ODO, Qo‘yliq-Panel, Tekstilniy-TTM, Botanika-ODO hamda “Yangi Avlod” MSZ hududidan o‘tgan EUTni ko‘chirish*).

3.2. Vazirlar Mahkamasining 599-sonli qarori ijrosi bo‘yicha (eskirgan 35–110 kV kuchlanishli elektr tarmoqlari va podstansiyalarda modernizatsiya-rekonstruksiya ishlari):

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 26/24-155-sonli topshirig‘i bilan “fast-track” usulida (*bir vaqtning o‘zida loyihalashtirish, xarid qilish va qurish*) amalga oshirish hamda zarur bo‘lgan elektr uskunalarni bosh pudrat tashkiloti tomonidan sotib olishga ruxsat berilgan, 2025-yil 28 noyabrdagi 26/1-421-sonli topshirig‘i bilan chora-tadbirlar rejasi (*obyektlar ro‘yxati*) tasdiqlangan.

Bosh pudratchi: “O‘zbekenergota‘mir” AJ bilan umumiy qiymati **836,4 mlrd. so‘m**ga shartnoma qilinib, shundan jami **250,9 mlrd. so‘m**, bosh loyihachi “O‘zenergoinjining” AJ bilan umumiy qiymati **77,6 mlrd. so‘m**ga shartnoma qilinib, **23,3 mlrd. so‘m** mablag‘ to‘landi.

Modernizatsiya qilinadigan obyektlar **umumiy soni 94 ta**, shundan: **53 ta podstansiya** (*110 kVli – 26 ta va 35 kVli – 27 ta*) va **41 ta tarmoq** (*110 kVli – 21 ta va 35 kVli – 20 ta*), umumiy uzunligi **930 km**.

1-chorakda 23 ta transformatorlar xarid qilinib, **175,0 MVA** qo‘shimcha quvvat yaratildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 6 MVA, Xorazmda 9 MVA, Andijonda 12 MVA, Jizzaxda 34 MVA, Samarqandda 28,4 MVA, Surxondaryo viloyatida 21 MVA, Toshkent viloyatida 18 MVA, Qashqadaryoda 47,1 MVA oshirildi. **3 ta** podstansiyada yangi KRUN yacheykalari o‘rnatildi. O‘ta yuklama bilan ishlayotgan tarmoqlarning jami **139,7 km** simi almashtirildi.

Toshkent viloyatida 33,5 km, Andijonda 24,2 km, Jizzaxda 10,0 km, Xorazmda 21,5 km, Samarqandda 15,8 km, Namanganda 23 km, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 9,7 km va Navoiy viloyatida 2,0 km.

3.3. 2025-yil 30 dekabrdagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini yagona elektr energetika tizimiga integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-400-son qaror ijrosi bo‘yicha:

Loyiha doirasida jami **345 km 500 kV** kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘i qurilishi rejalashtirilgan. “Talimarjon IES” va “So‘g‘diyona” podstansiyasi oralig‘ida 245 km tarmoq qurilishi, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari hududida; “ASWA Sirdaryo” va “Xalqa” podstansiyasi oralig‘ida 100 km tarmoq qurilishi, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hududida.

Loyihaning texnik-iqtisodiy hisob-kitobini ishlab chiqish bo‘yicha tasdiqlangan texnik topshirig‘iga “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan (*09.02.2026-yil*) ijobiy ekspertiza xulosasi taqdim etildi va hozirgi kunda loyiha texnik-iqtisodiy hisob-kitobini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Loyihaning dastlabki qiymati **147,0 mln dollar**, yakuniy qiymat texnik-iqtisodiy hisob-kitob hujjatlari hamda loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng aniqlashtiriladi. 100,0 mln dollarni moliyalashtirish bo'yicha Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan shartnoma imzolandi.

47,0 mln dollar qismini moliyalashtirish bo'yicha Energetika vazirligi, Investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan birgalikda Osiyo taraqqiyot bankiga taklif-so'rov tayyorlanmoqda.

Loyihani "tayyor holda topshirish" tamoyili asosida amalga oshirish uchun tanlov savdolari o'tkazildi, natijasiga ko'ra "UET Construction" MCHJ bilan pudrat shartnomasi (06.03.2026-yil) rasmiylashtirildi, shartnomaga qo'shimcha kelishuv (16.03.2026-yil) imzolandi, "Loyihalar va xaridlar samaradorligini oshirish markazi" DM orqali ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Pudratchi tomonidan safarbarlik, fundament o'rnatish va tayanchlarni yetkazib berish ishlari olib borilmoqda. Loyiha doirasida yer toifasini o'zgartirish bo'yicha Hukumat komissiyasiga taklif kiritilish yuzasidan Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyati hokimlariga xatlar yuborildi.

3.4. "Yashil energiya", qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanish, elektr energiyasini xususiy ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik bo'yicha:

Bugungi kunga qadar umumiy quvvati **6 979 MVt** bo'lgan **qayta tiklanuvchi energiya manbalari** asosidagi elektr stansiyalari **ishga tushirildi**. Jumladan:

4430 MVt quyosh fotoelektr stansiyalari:

"Masdar" kompaniyasi tomonidan Navoiyda 100 MVt, Samarqandda 220 MVt, Jizzaxda 220 MVt, Surxondaryoda 457 MVt, Buxoroda 250 MVt jami 1247 MVt, "Tepelen Group AG" kompaniyasi tomonidan Samarqandda 20 MVt, Namanganda 500 MVt, "China Energy" kompaniyasi tomonidan Buxoroda 500 MVt va Qashqadaryoda 500 MVt jami 1000 MVt, "China Datang Overseas Investment" kompaniyasi tomonidan Bo'ka tumanida quvvati 263 MVt, "CEYE" va "China Huadian Overseas Investment" kompaniyalari tomonidan Jizzaxda 500 MVt, "Total Energies" kompaniyasi tomonidan Samarqandda 100 MVt, "Votalia" kompaniyasi tomonidan Xorazmda 100 MVt, "ACWA Power" kompaniyasi tomonidan Toshkent viloyatida 200 MVt, "Hayper Partners" kompaniyasi tomonidan Namanganda 500 MVt.

1 652 MVt shamol elektr stansiyalari:

"ACWA Power" kompaniyasi tomonidan Buxoro viloyatida 1052 MVt, Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 MVt, "Masdar" kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatida quvvati 500 MVt.

897 MVt elektr energiyasini saqlash tizimlari:

"China Enerji" kompaniyasi tomonidan Andijonda 150 MVt, Farg'onada 150 MVt va Toshkent viloyatida 200 MVt, jami 500 MVt, "ACWA Power" kompaniyasi tomonidan Toshkent viloyatida 334 MVt, "Masdar" kompaniyasi tomonidan Buxoroda 63 MVt.

2026-yil davomida umumiy quvvati **3 929 MVt** bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi elektr stansiyalari **ishga tushiriladi**, jumladan:

2 100 MVt quyosh fotoelektr stansiyalari:

Navoiyda 300 MVt (China Energy Overseas Investment) va 200 MVt (tepelan group), Namanganda 700 MVt (Hyper Partners GmbH) va 500 MVt (tepelan group), Samarqandda 100 MVt (ACWA Power), Qashqadaryo viloyatida 300 MVt (Masdar)

470 MVt shamol elektr stansiyalari:

Qoraqalpog'iston Respublikasida 200 MVt (ACWA Power), Toshkent viloyatida, 20 MVt (Uzbekgidroenergo), Samarqand va Jizzaxda 250 MVt (Universal Energy)/

1 359 MVt elektr energiyasini saqlash tizimlari

Toshkent shahrida 150 MVt (Amea Power), 150 MVt (Eaglerise Development), Toshkent viloyatida 100 MVt (China Gezhouba Group Overseas Investments), Qashqadaryoda 75 MVt (Masdar), Navoiyda 150 MVt (China Energy Overseas Investment), Buxoroda 334 MVt (ACWA Power), Namanganda 200 MVt (China Gezhouba Group Overseas Investments), Andijonda 100 MVt (China Gezhouba Group Overseas Investments), Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 MVt (ACWA Power).

IV. Budjet to'lovlari, debitor-kreditor qarzdorlik va xarajatlarni qisqartirish bo'yicha:

1-chorakda, budjetga **70,3 mlrd so'm** to'lov rejalashtirilgan, **86,5 mlrd so'm** to'lov amalga oshirildi, 2026-yil yakuniga qadar budjetga **445 mlrd so'm** to'lanishi belgilangan.

2026-yilda Aksiyadorlik jamiyati bo'yicha jami **637,3 mlrd so'm** miqdorida sarf xarajatlarni qisqartirish va rejalashtirilgan, 1-chorakda 145,3 mlrd so'm (101%) **iqtisod** qilindi.-yil boshidan jami **782 ta 90,5 mlrd.so'mlik xaridlar** amalga oshirildi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "new.cooperation.uz" portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 132 ta 28,1 mlrdso'mlik, elektron do'kon orqali 24 ta 0,3 mlrdso'mlik, milliy do'kon orqali 12 ta 0,1 mlrdso'mlik hamda Uz.RTXB orqali 97 ta 6,7 mlrd so'mlik, "Eng maqbul takliflarni tanlab olish" orqali 6 ta 4,8 mlrd so'mlik, yagona yetkazib beruvchilar orqali 188 ta 25,1 mlrdso'mlik, xt-xarid.uz 77 ta 1,0 mlrdso'mlik, taklif so'rovi orqali 175 ta 21,9 mlrdso'mlik, "E.birja.uz" orqali 30 ta 0,8 mlrdso'mlik hamda to'g'ridan-to'g'ri 40 ta 1,8 mlrdso'mlik, elektron shartnomalar tuzilgan.

V. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologilarini joriy qilish, transformatsiya jarayonlari amalga oshirish bo'yicha:

Jahon banki kredit mablag'lari ishtirokida "Dispatcherlik boshqaruvi va ma'lumotlarni yig'ish dasturiy-apparat kompleksini (SCADA) joriy qilish" loyihasini "tayyor holda topshirish" sharti asosida amalga oshirish bo'yicha 2026-yil 27 fevral kuni "YEO Teknoloji Enerji ve Endüstri A.Ş." (Turkiya) kompaniyasi bilan shartnoma imzolandi, **198 ta** energoobyektni qamrab olish ko'zda tutilgan bo'lib, ishlar **2 ta** bosqichda olib boriladi.

1-bosqichda joriy-yil yakuniga qadar SCADA/EMS dasturiy kompleksi ishga tushiriladi va **52 ta** obyekt ulanadi, 2-bosqichda 2027-yil yakuniga qadar tizimga qo'shimcha ravishda WAMS (*keng qamrovli kuzatuv-monitoring tizimi*) dasturi va PMU (*faza o'lchov qurilmasi*) o'rnatiladi, **146 ta** obyekt integratsiya qilinadi.

YERP loyihasi asosida Jahon banki mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda, loyihani tayyor holda topshirish sharti bilan xalqaro tender savdolari yakunlariga ko'ra 2025-yil 30-aprelda "Terralink Technologies" MCHJ kompanisi bilan shartnoma imzolandi.

1-bosqichda 2026-yil iyulga qadar "O'zbekiston MET" AJ markaziy apparat hamda "Toshkent MET" filialida YERP dasturini joriy etish va ishga tushirish, 2-bosqichda 2026-yilning yakuniga qadar qolgan hududiy filiallarida YERP tizimini joriy etish va ishga tushirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, bir necha loyihalarda **sun'iy intellekt** texnologiyalaridan keng foydalaniladi, energetika obektlari monitoring platformasi, xavfsizlik va ish unumdorligi nazorati, xodimlarning intellektual salohiyatini oshirish, axborot xavfsizliginida'minlash elementlari orqali ushbu tizimlarning

barchasi yagona ekosistemada birlashib, inson omilini kamaytirishga va elektr ta'minoti ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA:

Kredit reytingni oshirish, Fitch reytings, S&P Global hamda Moody's xalqaro reyting agentliklari bilan shartnomalar imzolandi, agentlik savolnomalariga ko'ra Aksiyadorlik jamiyatining keyingi 5-yil uchun barcha risklarini o'z ichiga olgan moliyaviy modelni yangilash choralari ko'rilmogda, bu holat daromad, xarajat va pul oqimlarini 2030-yilgacha aniq prognozlash imkonini beradi.

Joriy-yil avgust oyiga qadar xalqaro kredit reyting darajani eng yirik uchlik reyting agentliklari bo'yicha yangilaydi, yuqori kredit reyting darajasi - Aksiyadorlik jamiyatining xalqaro moliya bozoridagi ishonchini oshiradi va qarz jalb etish shartlarini yaxshilaydi.

ESG tizimini joriy etish – E&Y xalqaro konsalting kompaniyasi jalb etildi (10.10.2025-yilda shartnoma imzolandi 101,7 ming AQSH dollari), hozirda ESG diagnostikasi o'tkazildi va atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari miqdori baholandi. Joriy-yilning iyun oyiga qadar Xalqaro GRI va SASB standartlariga muvofiq 2025-yil uchun Barqaror rivojlanish hisoboti (ESG hisoboti) ishlab chiqiladi va-yil yakuniga qadar ESG reytingiga ega bo'linadi. Bu tizim shaffoflik va korporativ boshqaruv sifatini yaxshilab, Aksiyadorlik jamiyatiimizning xalqaro maydondagi investitsion jozibadorligini oshiradi.

Yevrobond chiqarish –yil yakuniga qadar xalqaro moliya bozorlarida **300,0 mln dollar** qiymatida **yevroobligatsiya** larni joylashtirish choralari ko'rilmogda. Buning uchun xalqaro tajribaga ega bo'lgan "Finasia Capital" LLC bilan shartnoma imzolandi (2025-yil 1-avgustda 1082025-sonli shartnoma), hozirda xalqaro moliya bozorlarini tahlil qilish, obligatsiya chiqarish bo'yicha huquqiy va moliyaviy hujjatlarni tayyorlash ishlari olib borilmogda.

Joriy-yil yakuniga qadar London fond birjasida Aksiyadorlik jamiyatimizning yevroobligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashtiriladi – Aksiyadorlik jamiyatiimizga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish va oldimizda turgan muhim loyihalarni moliyalashtirish imkonini yaratadi.

VI. Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, yuridik xizmat faoliyati samaradorlini oshirish va o'ta muhim toifalangan obyektlar uchun belgilangan talablar ijrosi bo'yicha:

Har chorak yakuni bilan **e-anticor** platformasiga tegishli ma'lumotlar kiritilib borilmogda.

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda Aksiyadorlik jamiyatining topshiriqlariga asosan Aksiyadorlik jamiyati markaziy apparat hamda barcha filiallarda tegishli rahbar, xodimlar tomonidan 2026-yil uchun ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi-yillik deklaratsiyalar to'ldirildi, tahlil qilinib, natijasiga ko'ra, markaziy apparat, filiallar rahbar va mas'ul xodimlari o'rtasida jami **6 ta** "mavjud" va **154 ta** "ehtimoliy" manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi, bir-birini bo'ysunuvida bo'lgan rahbar va xodimlar rotatsiya qilinib, boshqa lavozimga o'tkazildi. Shuningdek, **154 ta** "ehtimoliy" manfaatlar to'qnashuvi holati bo'yicha har bir xodim bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi, kelajakda "mavjud" manfaatlar to'qnashuvi holatlariga aylanishiga yo'l qo'ymaslik va ularni oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib, bayonlashtirildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" **ISO 37001:2025** Xalqaro standart bo'yicha o'quv kursida **37 nafar** xodim qatnashib, sertifikat olgan. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri yuritilib Aksiyadorlik jamiyatining ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o'rganilib, kadrlar boshqarmasiga tegishli xulosalar taqdim qilib borilmogda. Davlat xaridlari bo'yicha "Eng yaxshi takliflarni tanlab olish" yo'li bilan o'tkazilgan savdolarida **105 ta** kontragent ma'lumotlari o'rganilib, tegishli xulosalar berildi.

“Toshkent magistral elektr tarmoqlari”, “Toshkent shahar magistral elektr tarmoqlari”, “Magistraltarmoqqurilish”, “Qashqadaryo magistral elektr tarmoqlari” va “Energo-IT” filiallarida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borildi. Unda xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yana-da yuksaltirish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlarni bartaraf etish yuzasidan bilim va ko‘nikmalari mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26 dekabrda **1050-sonli** “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida MET filiallari tasarrufidagi elektr tarmoqlarining **muhofazazonalari** hududlarida **1 100** tanoqonuniy qurilmalar aniqlangan.

Toshkent MET filialida 519 ta, Navoiyda 160 ta, Buxoroda 87 ta, Farg‘onada 59 ta, Andijonda 87 ta, Samarqandda 44 ta, Surxondaryoda 43 ta, Namanganda 41 ta, Qashqadaryoda 19 ta, Sirdaryoda 17 ta, Xorazmda 16 ta, Jizzaxda 8 ta.

Shundan, **689 ta** holat bo‘yicha sudlarga da‘vo arizalar kiritilgan, **364 ta** holatda rad etilgan va ajrim asosida qaytarilgan, **305 ta** holatda qanoatlanirilgan, **21 ta** arizalar sudlar tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Aniqlangan noqonuniy qurilmalarning **58 tasi** ixtiyoriy ravishda va **157 tasi** sudning qaroriga asosan bartaraf etilgan.

Aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi **idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari** xodimlaridan **140 nafari** IIV Malaka oshirish instituti bilan tasdiqlangan Reja-jadvalga muvofiq 1-bosqichda (10-19-aprel kunlari) o‘quv dasturlarini muvaffaqiyatli tugatib, maxsus sertifikatga ega bo‘ldilar, 2-bosqichda (22-30 aprel kunlari) **139 nafar** xodim o‘qitildi.

Qashqadaryo viloyat IIB JTSB xodimlari bilan hamkorlikda 500 kV kuchlanishli “G‘uzor” podstansiyasida idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmasi qorovulxona bino inshooti ta‘mirlash ishlarini yakunlash, shuningdek qurol saqlash xonasi uchun maxsus ruxsatnoma olish masalalari o‘rganildi.

2026-yil I-chorakda Aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi mavjud 500 kV **toifalangan** podstansiyalarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 2026-yil 27 yanvardagi 1-son buyrug‘i asosida “Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda maxsus xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida 500 kV kuchlanishli “Surxon”, “So‘g‘diyona” “G‘uzor” podstansiyalarida maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlari, shuningdek, 220 kV kuchlanishli “Sherobod”, “Cho‘pon-ota”, “Qarshi”, “Koson”, “Amir-Temur” va “O‘zgarish” podstansiyalarida navbatchi muxandis va elektr chilangarlari bilan avariya qarshi mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Shuningdek, FVV Fuqaro muhofazasi instituti “*Safarbarlik*” yo‘nalishida **2 nafar**, “*Yong‘in xavfsizligi*” yo‘nalishida **100 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi.

VII. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ijro intizomiga rioya etilishi bo‘yicha:

“*ljro.gov.uz*” yagona elektron tizimida ijro muddati belgilangan qonunchilik hujjatlari **167 ta** (1 ta Qonun, 23 ta Farmon, 2 ta farmoyish, 94 ta qaror va 47 ta bayonlarda) va topshiriqlari bo‘yicha **636 ta** (1 ta Qonun, 114 ta Farmon, 11 ta farmoyish, 391 ta qaror va 119 ta bayonlarda) topshiriq mavjud, shundan **419 tasi** bajarilgan, **217 tasi** bajarilmoqda.

“*ljro.gov.uz*” yagona elektron tizimida 2026-yil 1 yanvar holatidagi **242 ta** topshiriq ijrosi to‘liq ta‘minlanib, tizimdan nazoratdan yechilgan, 1-chorakda **46 ta** topshiriq ijrosi to‘liq ta‘minlandi, tizimda muddati buzilgan hujjatlar mavjud emas.

1-chorakda jami **168 ta** murojaatlar kelib tushgan, shundan **158 tasiga** yechim topilgan, **10 tasi** tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotlariga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining cabinetpm2.gov.uz sayti orqali **102 ta** murojaat kelib tushgan, shundan **97 tasiga** yechim topilgan, **5 tasi** taaluqliligi bo'yicha yuborilgan. Fuqarolarni qabul qilish uchun alohida xona ajratilib, videokamera bilan jihozlangan.

VIII. Ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosati ijrosi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha:

- **1-chorakda**, jami **10 ta yangi ish o'rni** yaratildi, **17 ta** yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti va yetakchilari faoliyat yuritib kelmoqda;
- **343 nafar** TDTU va FDTU talabalari **dual ta'lim tizimi** asosida Aksiyadorlik jamiyati filiallari tasarrufidagi yuqori kuchlanishli podstansiyalarda malakaviy amaliyot o'tadi;
- o'quv jarayonlarini ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lash maqsadida **52 nafar** 2-4 bosqich TDTU talabalari uchun haftaning dushanba va payshanba kunlari "Ozodlik" podstansiyasi hamda "Xodimlar tayyorlash markazi" bazasida darslar o'tkazildi;
- **8 nafar** iqtidorli talabalar doimiy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilindi, ular uchun haq to'lanadigan stajirovka tizimi yo'lga qo'yildi;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida **2 nafar**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan hamkorlikdagi Belarus Respublikasidagi Polotsk Evfrosin nomidagi Polotsk davlat universitetida **1 nafar** xodimga ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi;
- **875 nafar** rahbar va xodimlarning malakasi oshirildi, jumladan, Markazlashgan o'quv kurslarida **108 nafar**, "Xodimlar tayyorlash markazi"da **20 nafar** hamda filiallardada tashkil etilgan ustoz-shogird an'alariga muvofiq **695 nafar** xodimlar uchun mashg'ulotlar o'tkazildi;
- **37 nafar** rahbar-xodimlar chet elda malaka oshirdi, **15 nafari** tajriba almashdi;
- TDTUning **3nafar** professor-o'qituvchilari "Xodimlarni tayyorlash markazi"dagi o'quv jarayonlariga jalb qilindi, **4 nafari**Aksiyadorlik jamiyati tomonidan tashkil etilgan "NR raqamli podstansiya texnologiyasi" bo'yicha amaliy-nazariy mashg'ulotlarda malaka oshirdi.

Aksiyadorlik jamiyati mablag'lari hisobidan **29 nafar** xodimlarni Respublika oliy ta'lim muassasalarida maxsus sirtqi ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston energetika, neft-gaz va geologiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining "Mahallani rivojlantirish va Aksiyadorlik jamiyatini yuksaltirish-yili" Davlat dasturi asosida "O'zbekiston MET" AJ Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining Dasturi ishlab chiqildi va shu asosida ishlar olib borilmoqda.

"O'zbekiston MET" AJ hamda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida 2026-2028-yillarga mo'ljallangan yangi "**Jamoa shartnomasi**" tasdiqlandi (04.02.2026-yil).

• **1-chorakda** Dastur hamda "Yoshlarga oid davlat siyosati" ijrosi yuzasidan jami **110 ta**, shundan **75 ta** ma'naviy-ma'rifiy va **35 ta** sport tadbirlari o'tkazildi.

• Xodimlarni bayram va dam olish kunlarini maroqli o'tkazish maqsadida **924 ta** konsert, **20 ta** muzey hamda **60 ta** kino saroy chiptalari berildi.

• "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida Amirsoyga **45 nafar**, Toshkent shahriga **50 nafar**, Xiva shahriga **33 nafar**, jami **128 nafar** xodimlar va ularni oila a'zolari sayohat tashkil etildi.

• Navro'z bayrami va Ramazon hayiti munosabati bilan **84 nafar** nafaqadagi yolg'iz fuqarolarga hamda faxriylarga oziq-ovqat to'plamlari topshirildi, moddiy ko'makka muhtoj, kam ta'minlangan, davolanish zarurati mavjud **145 nafar** xodimga moddiy yordam ajratildi, baxtsiz xodisa tufayli vafot etgan hamda jabrlangan xodimlar oilalaridan **22 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

- “Navro‘z” bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan sport musobaqalari **833 nafar** xodimlar ishtirok etishdi va sovrinli o‘rinlarni egallagan xodimlarga esdalik sovg‘alari topshirildi;
- Kasaba uyushmasi mablag‘lari hisobidan **15 nafar** xodimlar va ularning oila a‘zolari sog‘liklarini tiklashdi, ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan **3 nafar** xodimlar sog‘liklarini tiklashdi, **1 nafar** afg‘on urushi qatnashchisiga bepul yo‘llanma berildi, MHTF mablag‘lari hisobidan **4 nafar** faxriylar sanatoriyada sog‘liklarini tiklashdi;
- Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriyasida **4 nafar** xodim dam olish bilan bir vaqtda malaka oshirishdi;
- 11–12 aprel kunlari “Energetiklar sihatgohi”da barcha filiallar jamoalari ishtirokida mini futbol bo‘yicha “Boshqaruv raisi kubogi-2026” musobaqasi o‘tkazildi;
- kasaba uyushmalari tomonidan podstantsiya va xizmatlarga **107-mart**chiqib mehnat sharoitlarini o‘rganildi va aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2026-yilda jami **25 000** tup ko‘chat ekish rejalashtirilgan. Bahor mavsumida **15 210 tup** ko‘chat ekildi (*reja 15 000 tup*), O‘zbekiston Respublikasining Eko platformasiga kiritilgan, kuz mavsumida **10 000 tup** ko‘chatlar ekiladi va ko‘chatlarni xarid qilish uchun shartnomalar tuzilgan.

Yuqorichirchiq tumani, “Saksonota” MFY hududidan ajratilgan “Yashil belbog‘” yer maydoniga (7,6 gektar) **2 000 tup** mevali daraxt ko‘chatlari va **3 500 tup** manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi va ma‘lumotlari “Eko platforma”ga kiritildi, ushbu hududda tomchilatib sug‘orish tizimi tashkil etilmoqda.

“O‘zbekiston MET” AJda elektr energiyasini uzatish, tizimlarni ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish, 2026-yil “Yoz mavsumi” hamda “2026-2027-yillar kuz-qish mavsumi”da barcha hudud va tarmoqlar uchun ishonchli va uzluksiz elektr ta‘minotini yo‘lga qo‘yish hamda ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbaalari hisobidan rejalarni amalga oshirish borasida ishlar davom ettiriladi.

Batafsil ma‘umotlar rasmiy veb-saytning “Yangiliklar”, “OAV hamda jamoatchilik bilan ishlash”, “Hisobotlar”, “Kelib tushgan murojaatlar” va boshqa ruknlari orqali taqdim etib borilmoqda.

- ◆ Veb-sahifa: <https://www.uzbekistonmet.uz/>
- ◆ Telegram: <http://t.me/uzmetaxborotxizmati>
- ◆ Facebook: <https://www.facebook.com/elektrtarmoq>
- ◆ Instagram: <https://www.instagram.com/uzbekistonmet.uz>
- ◆ X: <https://x.com/uzbekistonmet>
- ◆ Odnoklassniki: <https://ok.ru/group/61026265792660>
- ◆ Utube: <https://utube.uz/ru/users/7208>
- ◆ YouTube <https://www.youtube.com/channel/UC6cRpsasTIKnReaCXXqccdg>
- ✉ Elektron pochta: info@uzbekistonmet.uz
- ✉ E-xat: uzbekiston_met@exat.uz
- ☎ Call centre raqami: +998 (55) 500-5545

 «O‘zbekiston MET» AJAxborot xizmati

*MVA — megavolt•amper; MVt — megavatt;
GVt — gigavatt; kV — kilovolt; kVt — kilovatt